

**INGLIZ TILIDA OG'ZAKI MULOQOT JARAYONIDA
ELIZIYA HODISASINING UCHRASHI VA TAHLILI
(AYRIM QO'SHIQLAR MISOLIDA)**

Abdullayeva Sabohat Sodiq Qizi

Urganch Davlat Universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqola ingliz tilida keng uchraydigan eliziya hodisasi, uning ishlatilish maqsadi va eliziya turlarini, ya'ni fonetik va leksik qatorini ayrim qo'shiqlar misolida taqdim etadi. Qolaversa, ushbu maqolada eliziya bilan bog'liq qoidalar yoritib beriladi va bu o'z o'rnida o'quvchilarga ingliz tili og'zaki muloqot jarayonida uchrashi mumkin bo'lgan fonetik eliziya va leksik eliziyalarni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: eliziya hodisasi, fonetik- leksik qator, fonetik eliziya, leksik eliziya, og'zaki muloqot, aferezis, sinkopa, apokopa

Abstract: This article presents the common phenomenon of elision in English, the purpose of its use and the types of elision, that is, phonetic and lexical series, on the example of some songs. In addition, this article highlights the rules related to elision, which in turn will help students better understand the phonetic elision and lexical elision which they may come across in verbal communication of English.

Key words: the phenomenon of elision, phonetic- lexical series, phonetic elision, lexical elision, verbal communication, apheresis, syncope, apocope

Аннотация. В статье на примере некоторых песен представлено явление элизии, распространенное в английском языке, цели его употребления, а также виды элизии, то есть фонетические и лексические ряды. Кроме того, в этой статье будут рассмотрены правила, связанные с элизии, что, в свою очередь, поможет учащимся лучше понять фонетическое и лексическое элизии, с которым они могут столкнуться в разговорном английском языке.

Ключевые слова: феномен елизии, фонетический – лексический ряд, фонетический элизии, лексический элизии, разговорном общение, аферез, синкоп, апокоп.

Kirish

Bugungi kunda ingliz tilini bilish zamon talablaridan biriga aylanmoqda. Ingliz tilini chuqurroq anglab yetish va bu tilda ravon gapishtirish uchun, avvalo shu tilning o'ziga xos standartlarini o'zlashtirish, tilning fonologik qoidasini o'rganish, tildagi 46 ta fonemalarni to'g'ri talaffuz qila olish va qolaversa, og'zaki muloqot jarayonida teztez duch keladigan fonetik, leksik o'zgarishlarga alohida e'tibor qaratish lozim. Yuqorida aytib o'tilgan o'zgarishlar deyarli barcha tillarda uchrashi mumkin bo'lgan

hodisalar hisoblanadi va ularning har birida o'ziga mos qonuniyat va xususiyat aks etgan bo'ladi. Eliziya bunday o'zgarishlarning tipik ko'rinishidir.

Eliziya so'zlarni birga aralashtirib, umumiyligi bo'g'lnarni kamaytirish uchun so'zdan urg'usiz bo'g'in yoki harfni olib tashlashdir.¹ Tilning talaffuzi uning ma'nosining moddiy tashuvchisi hisoblanadi. Tilning mavjudligi tovushlar orqali namoyon bo'ladi. Og'zaki muloqot vaqtida ma'lum bir vaziyatlarda eliziya sodir bo'lishiga qarab u haqidagi qoidalarni anglash mumkin. Mazkur maqolaning keyingi munozaralarida eliziya hodisasi haqidagi ma'lumotlar umumlashtirib, guruhlarga bo'linadi.

Fonetik jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, eliziya hodisasini 3 turga ajratishimiz mumkin: aferezis, sinkopa, apokopa.

Aferezis- biror so'zning boshidagi unli yoki undosh bo'lgan bir yoki bir nechta tovushlarning yo'qolishidir. Masalan: **knife** so'zi

/'naif/ tarzida talaffuz qilinadi.²

Sinkopa- biror so'zning ichki qismidan bir yoki bir nechta tovushlarning talaffuzda tushib qolishidir. Masalan: **people** so'zi /p'iɒəl/ shaklida talaffuz qilinadi.

Apokopa- fonetikada so'zning oxirgi unlisi yo'qolgan tovush o'zgarishidir. Kengroq ma'noda ba'zan har qanday yakuniy tovushni, shu jumladan undoshlarni yo'qotishni o'z ichiga oladi.³

Masalan: **before** so'zi / bif/ or/ shaklida talaffuz qilinadi.

Leksik eliziyaga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bunda fonetik eliziyadan farqli ravishda bir nechta so'zlarning qisqarishi yoki bir nechta so'zlardagi bir nechta tovushlarning tushishi orqali yakka so'zga aylanishi deya olamiz. Masalan; **going to** so'zi zamonaviy ingliz tili og'zaki muloqotida va zamonaviy qo'shiqlarda **gonna** shaklida talaffuz qilinadi.

I do not know gapidagi so'zlar o'zaro eliziyaga uchrab **Dunno** shaklida ifodalanadi. Bu kabi eliziya namunalaridan foydalanish ingliz tilida gapiradigan insonlarning kundalik hayot tarziga aylanmoqda.

Do not you know? → Donch ya know?

Who are you going to call? → Who ya gonna call?

Fonetik va leksik eliziyalar nutqni soddalashtirishga va uni suhbatga yanada moslashtirishga yordam beradi. Og'zaki muloqotda ritm hissini yaratish uchun foydalaniladigan eliziya hodisasi yozma nutqda ham murojaat qilinadi. Kundalik hayotimizda fonetik eliziya va leksik eliziya turlariga namunalar juda ko'p uchraydi. Bu esa nutqimizning umumiyligi ma'nosini o'zgartirmasdan, yanada ixchamroq ifoda yaratishimizga yordam beradi.

¹ <http://www.woodheadpublishing.com/literary-devices/elision>

² Septiana Iman Nasrulloh, Salman Yasri, Evie Kareviati. Elision in Students' Pronunciation During Presentation. PROJECT(Professional Journal Of English Education) Journal, Vol.2 No.6, November 2019. P-793-794

³Campbell, Lyle (2007). Glossary of Historical Linguistics. Edinburgh University Press. p.13

“Outlanish” daniyalik hip-hop guruhi ijrosidagi “**Callin’ U**” qo’shig’i ham fonetik eliziya ham leksik eliziya turlariga misol bo’la oladi. Ashula nomining o’zidayoq eliziya hodisasini uchratishimiz mumkin. Ya’ni **Callin’ U → Calling You** jumlasining eliziyaga uchragan shaklidir. Qo’shiqdagi ayrim eliziyaga uchragan so’zlar va jumlalar quyidagilar⁴:

I’m callin’ you – I am calling you

Ain’t fallin – is not it falling

I can’t believe we gon’ do this again – I can not believe we are going to do this again

Tryin’ to reach you – trying to reach you

Yana bir mashxur ayol honandalardan biri Beyonce o’zining “**Runnin’**” qo’shig’ida eliziyaga murojaat qilgan⁵.

I have been callin’ you

I have been missin’ you

Where else can I go?

Chasin’ you, chasin’ you

Quyida keltirilgan qo’shiqning lirikasidagi so’zlarning oxirgi “g” harfi eliziyaga uchrab tushirib qoldirilgan. Hatto, qo’shiq nomi ham “**Runnin’**” eliziyaga uchragan.

Eliziya namunalaridan yana birini Jay Z nomli xonandaning “Run This Town” nomli qo’shig’ida uchratish mumkin.⁶

Feel it comin’ in the air

Is who’s gon’ run this town tonight

Yeah, I’m talkin’ 5 comma, 6 zeros, dot zero

Quyidagi jumlalarda ham eliziya hodisasini uchratish mumkin.

Xulosa

Eliziya hodisasi tilshunoslik sohasida muhim o’rin egallaydigan lingvistik fenomen hisoblaniladi. U tilning fonetik, leksik asoslarini, so’zlarning talaffuz xususiyatlarini o’rganish, nutq samaradorligini oshirish va ritm hissini uyg’otish kabi bir qancha vazifalarni bajara oladi. Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, eliziya hodisasi rasmiy nutq jarayonlariga qaraganda, norasmiy og’zaki nutq jarayonlarida ko’proq uchraydi. Eliziyaning vazifasi so’zlovchi uchun talaffuzi oson va tinglovchi uchun tushunarli bo’lgan nutq bilan taminlashdir. Bundan tashqari, eliziya nutq va tinglab tushunish qobiliyatlarini oshirish uchun ham muhim soha sifatida qaraladi.

⁴ <https://genius.com/Outlandish-callin-u-lyrics>

⁵ <https://genius.com/Naughty-boy-runnin-lose-it-all-lyrics>

⁶ <http://genius.com/Jay-z-run-this-town-lyrics>

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Campbell, Lyle (2007). Glossary of Historical Linguistics. Edinburgh University Press. p.13
2. Septiana Iman Nasrulloh, Salman Yasri, Evie Kareviati. Elision in Students' Pronunciation During Presentation. PROJECT (Professional Journal Of English Education) Journal, Vol.2, No.6, November 2019. p.793-794
3. <Https://www.woodheadpublishing.com/literary-devices/elision>
4. <Https://genius.com/Outlandish-callin-u-lyrics>
5. <Https://genius.com/Naughty-boy-runnin-lose-it-all-lyrics>
6. <Https://genius.com/Jay-z-run-this-town-lyrics>